# MAKTABGACHA TA’LIM SOHASIDA TASVIRIY FAOLIAYATNI O‘TKAZISH BO’YICHA SAMARALI ISHLAR

*Ilmiy raxbar:**D.S.Gafurova***
*O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*
*Maktabgacha va Boshlang’ich ta’lim fakulteti 3-bosqich talabasi*
***Boyquvatova Nigina***

**Annotatsiya.**Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat turlari, ularning mazmuni, tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda aqliy, axloqiy, estetik tarbiya turlarini rivojlantirish, irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo‘yib, o‘shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o‘rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar haqida tushuncha, ko’rsatib berilgan.

**Kalit so’zlar:** Tasviriy faoliyat, badiiy ijod, rasm chizish, estetik sezgi, san’at asarlari.

Biz yurtimizda Uchinchi Renessansni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz», – dedi prezident.Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabulqilinganining 25 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzalarida “ Maktabgachata’lim sohasida ana shunday ulkan islohotlarni hayotga joriy etish biz uchun hamqarz, hamfarzdir. Qanchalik qiyin bo’lmasin, bu tarixiy vazifani amalga oshirishimiz shart vaunibarchamiz birgalikda albatta bajaramiz”.[1] Maktabgacha ta’lim tashkilotida tasviriyfaoliyatmashg’ulotlarini rejalashtirish va hisobga olish zarur. Tasviriy faoliyat – bu bolalarni o‘zoldigaqo‘ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyatdir. Tasviriyfaoliyatbolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetningkatta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezginingbo‘laklarihisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi – rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroqsezishbilan bog‘liqdir Maktabgacha ta’lim tashkilotida tasviriy faoliyat bo’yichaishlarnirejalashtirishda asosiy tamoyili, bu tasviriy faoliyatni ta’lim-tarbiyaviy ishningengmuhimbo’limlaridan biri sifatida qarash hisoblanadi.

[1] https://lex.uz. O’zbekistonRespublikasining “Maktabgachata’limtarbiyato‘g‘risida”giQonuni.2019 yil 16 dekabr.

Maktabgacha ta’lim muassasasidagi tarbiyaviy ish bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ularda turli qobiliyatlarning shakllanishi uchun xizmat qiladi. Barcha faoliyat turlarining bog‘liqligi bolalarda kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, fikrlash, xayol, estetik his-tuyg‘u, badiiy did, Shu bilan birga, axloqiy sifatlar, mehnat qilish xohishi va ko‘nikmasi, boshlangan ishni oxiriga yetkazish, qiyinchiliklarni yengish hissining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Bolalar bilan tasviriy san’at mashg‘ulotlarida o‘tkaziladigan suhbat ularda rasrn chizishga, loydan buyum yasashga qiziqishlarini uyg‘otishi zarur Tasviriy faoliyat turlari bolalar o‘yini bilan ham bog‘liq bo‘ladi. O‘yin bola hayotida katta o‘rin egallaydi. Maktabgacha ta’lim muassasasidagi turli xil - mazmunli-rolli, dramalashtirish, didaktik va harakatli o‘yinlar o‘tkaziladi. Har qanday o‘yin bolaga zavq bag‘ishlaydi. Shunday ekan, tasviriy faoliyat ham o‘yin bilan bog‘lab borilsa, u bolalarga qiziqarli va yoqimli tuyuladi.[2]

Prezident Sh.Mirziyoevning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabulqilinganining 25 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasidan. 07.12.2017yilQo’shimcha: Endi bolalar mo’yqalam, akvarelni ranglar bilan tajriba o’tkazadi , qizil rangnisariq rang bilan va sariq rangni ko’k rang bilan aralashtiradi. E’tiborgamolikjihati: Mashg’ulotdan so’ng bolalarga «Kamalak» haqidagi al’bomni jihozlashtopshiriladi.Tasviriy faoliyatga o’rgatish metodikasi dasturi doirasidaberilayotgan mavzular maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari kasbiyqayta tayyorlash kurslari o’quv rejasi asosida shakllantirilganbo’lib,tinglovchilarda tarbiyalanuvchilarni tasviriy faoliyatga o’rgatishmetodikasiga oid kasb mahoratini, o’quv-uslubiy faoliyatini yuksaltirishbilanbog’liqkompetentsiyalarini rivojlantiradi. Quyidagi tavsiyalarni beramiz:

1. Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda mozaika usulini qo’llashdamateriallarning xilma-xilligi(Tabiiy, tashlandiq,qogo’z)foydalanilsa:

2. Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda mozaika usulidan guruhishlarimetodikasidan foydalanilsa:

3. Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda mozaika usulidan mayda matorikalarnishakllantirish mashlaridan foydalanilsa:

4. Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda mozaika usulidan “ Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalal rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari “ asosida asosidaishlash:aytib o’tiladi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Rasm chizish, loydan buyumlar

[2]Mamirova Z.U., Niyozova G.B. “Maktabgachata’limtashkilotlaridabolalarnitasviriyfaoliyatmashg’ulotlaridaijodiyqobiliyatlarinishakllantirish” Science and Education" Scientific Journal January 2021 / Volume 2 Issue 1

yasash va applikatsiya - bu tasviriy faoliyat turlari bo'lib, ularning asosiy vazifasi-tevarak atrofni obrazli aks ettirish hisoblanadi. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o'sadi va bu orqali maktabda o'qishga tayyorlanib boriladi. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatlari, shakli, rangi, katta kichikligi bilan tanishadilar, ularni farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa, bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi. Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi. Bolalar ishlarida o'z hayotida, jamiyatda bulayotgan voqea-xodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'ladilar, xayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga etkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni engish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga birbiriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlari ishni baholash jarayonida, ularda o'rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baxolash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar shakllanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi
2. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 05.04.2018 y. PQ-3651.
3. O'zbekistonRespublikasining "Ta'limto'g'risida" giQonuni O'RQ-637-сон 23.09.2020. 8- moddasi "Maktabgachata'limni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" Xalq so'zi gazetasi 30.09.2020
4. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyadainnovatsionpedagogiktexnologiyalar.T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016
5. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent 2018 yil( Maktabgacha ta'lim vazirligi)
6. Mamirova Z.U., Niyozova G.B. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish" Science and Education" Scientific Journal January 2021 / Volume 2 Issue 1
7. SodiqovaSh.A."Maktabgacha pedagogika". T.: Tafakkur bo'stoni, 2013 9. NurmatovaM.Sh